

Zardushtiylik ta'limotida Ahura Mazda tavsifiga oid ba'zi mulohazalar.

Tojiboeva D. 2 kurs magistranti TDSHI

Annotatsiyasi

Ushbu maqolada Zardushtiylikning oliy xudosi Ahura Mazda xaqida so'z yuritilgan bo'lib, uning yaratuvchanlik, buyuklik, ilk marta jangchi qiyofasida tasvirlanganligi haqida ma'lumot olishimiz mumkin. Shuningdek, "Kichik Avesta"da Ahura Mazda yovuzlikka qarshi kurashda barcha xudolarni birlashtiruvchi oliy iloh talqinida namoyon bo'ladi.

XX asrning o'rtalarigacha zardushtiylik dinining payg'ambari Zardushtning tarixiy shaxs ekanligi, uning vatani, birinchi marta jahon diniga aylangan bu dinning shakllanish davri va undagi ilohiy ta'limot haqidagi ma'lumotlar xilma-xil edi. Jahon avestoshunosligining vujudga kelganiga uzoq davr bo'lgan bo'lsada, afsuski bizning vatanimizda bu imkoniyat faqatgina istiqlool tufayli jonlana boshladi. Shu sababdan ham o'zbek avestoshunosligi oldida hali o'z yechimini kutayotgan masalalar talaygina. Zardushtiylikdagi iloh va ma'budlar ularning vujudga kelishi bilan bog'liq omillar va xudolar tavsifi ham qayd etilgan masalalardandir.

Bu dinning, uning ilohiy-falsafiy ta'limotining shakllanishi bevosita u vujudga kelgan tarixiy sharoit va hudud bilan bog'liq. Mil. avv III mingyillikda Volga daryosidan sharqda, janubiy rus dashtlarida tarixchilar tamonidan protoindoeroniylar deb ataluvchi chorvodor va kohinlardan iborat yarim ko'chmanchi ulkan xalq yashagan. Ko'plab tadqiqotchilarning fikriga ko'ra mil. avv III mingyillikda bu xalq ikkiga: indoariy va indoeroniylarga bo'lingan¹.

¹ Бонгард - Левин Г. М., Грантовский Э. А. От Скифии до Индии. М., 1983г, 123с

Mil. avv II mingyillikda indoariylar orasida harbiylar hokimiyatining kuchayishi yuz beradi va bu albatta o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotda bir muncha notinchliklarning yuzaga kelishiga ham ta'sir etadi, aynan mana shunday notinch davrda Payg'ambar Zardusht yashaganligi taxmin qilinadi. Albatta Zardushtning yashagan davri haqida aniq bir fikr bo'lmasada mil. avv. II mingyillikda Yevroosiyo kengliklarida yuzaga kelgan xalqlar migratsiyasi bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va uning oqibatidagi ziddiyatlarning alomatlari, zardushtiylikdagi dualistik qarashlarning vujudga kelishiga asoslangan bo'lsa ajabmas ("Avesta"da bayon etilgan Shimol va Janub o'rtasidagi azaliy kurash)².

Zardusht dunyoga kelgan hudud ham munozarali bo'lib, bu jihatga yondashishda ba'zi etnografik tahlillarga e'tibor qaratish mumkin. Masalan, Zardusht so'zining etimologiyasini "zar" – "Oltin, sariq"; "ushtra" – "tuya" ya'ni "Sariq tuyali", "Sariq tuyaga egasi", "Sariq tuyaga yetaklagan kishi" kabi, otasining Purushaspa ismidagi "aspa" so'zining qadimgi fors tilida "ot", "tulpor" ma'nolarni anglatishi ularning chorvachilik bilan bog'liqliklariga yoki Zardusht qavmida bu jonzoatlarga nisbatan hurmat e'tibordan dalolat beradi deyishga asos bor³. "Avesta"ning tarjimon-tadqiqotchilaridan biri I.M.Steblin-Kamenskiyning fikricha ismlarga qo'shilgan jonzoatlarning oti shu insonni yovuz ruhlardan himoya qilish maqsadida ishlatilgan, bu odat hozirgacha O'rta Osiyo va Eron xalqlarida saqlanib qolgan. Ot va tuyaga kultining O'rta Osiyo xalqlari ayniqsa chorvador sak va massaget qabilalari hayoti va e'tiqodidagi o'rni benazirligi ham muhim jihatdir. Ammo Zardusht so'zining mazmun-mohiyati haqida fransuz olimi Anketil dyu Peron ismning birinchi bo'lagidagi so'z "Zara" – "Tillarang", "Porlovchi"; ikkinchi qismidagisi esa "ushtra" - "ushtur"(tuyaga) emas, balki zardushtiylik ta'limotidagi muqaddas siymolardan biri Sirius yulduzining zardushtiylikdagi

² Абаев В. И. Миф и история в Гатах Зороастра // Историко-филологические исследования. М., 1974г, 81с.

³ Рак И. В. Зороастрийская мифология. СПб., 1998г, 105с.

muqaddas timsoli Tishtriyadir degan fikrda⁴. Buni “Avesta”dagi quyidagi soʻzlar ham bilan tasdiqlaydi: “Xursandchilik ila porloq yulduz Tishtriyaga topinamiz. Uni Ahura barcha yulduzlarga rahnamo va nazoratchi etib yaratgan. Xuddi insonlar uchun – Zardushtni (yaratgandek)... ” Tishtriya tabiatda suv muvozanatiga javobgar hisoblanadi, zardushtiylar suvni tiriklikning asosiy manbayi sifatida nihoyatda ulugʻlab, unga olovdan kam eʼtiqod qilishmagan⁵.

Bu kabi misollar orqali Zardushtiylikning vatani masalasini hal etmoqchi emasmiz, bu mavzuning asosiy maqsadi ham emas, faqat bu jihatlarni eʼtiborga olib zardushtiylik taʼlimotini shakllanishiga taʼsir etgan omillar haqida mulohazalarni bayon qilishni maqsadga muvofiq deb topdik. Zeroki, har bir tarixiy oʻzgarishni tarixiy sharoit yuzaga keltiradi.

Qadimgi Markaziy Osiyo qabilalarning kelib chiqishi tabiat kuchlariga boʻysunishga asoslangan koʻpxudolik dini mutafakkir Zaradushtra nomi bilan bogʻliq boʻlsada, bu dinning ildizi indoyevropa umumiyligi davriga borib taqaladi.

Indoyevropa umumiyligi davridayoq bu din shakllanib, maʼlum taraqqiyot bosqichiga yetgan edi. Qadimgi indohinduiy va indoeroniy manbalarning qiyosiy tahlili shundan dalolat beradiki, indohinduiy va indoeroniy qabilalari boʻlinib ketmasidanoq ularda ahd, bitim, shartnoma ilohi – **Mitra** kulti, **Indra** va boshqa ilohlar, **Yima**(Yame) haqidagi asotir, **Vivasvant**(“Avesta”da Vivahvant) oʻgʻillari, ilohiy Haqiqat(avest. **Asha**, qadimgi fors. Arta, qad. hind. Rta) tushunchalari allaqachon shakllangan edi. Mukammal diniy amallar tizimi shakllangan: qurbonlik marosimi atamasi(avest. - **yaza**, qad. fors. -yada, qad. hind – yacha), kohin (avest.- **zaotar**, qad.hind - xotar), muqaddas ichimlik (avest. – **hauma**, qad.hind. – soma) atamalari shakllangan. Bu xudolar vaqti kelib ikkiga boʻlingan: bir guruh xudolar dayva(qad.hind. - deva), boshqa guruhi asura(avest. – ahura,

⁴ Лелеков Л. А. Йима. Мифологический словарь. Москва, 1990г, 80с.

⁵ Авеста. Хордэ Авеста (Младшая Авеста) / Подготовка авестийского текста, перевод, предисловие, комментарий М. В. Чистякова. СПб., 2005г, 77с.

qad.hind. - asura) deb ataladigan bo'ldi. Istalgan qabila bir vaqtning o'zida ham ahura ham dayvalarga, yoki ulardan biriga misol uchun ahuralarga e'tiqod qiladi, bunday vaziyatda boshqa guruh xudolari ya'ni dayvalar yovuzlik kuchlari sifatida yoki aksincha tasvirlangan⁶.

“Veda”(qadimgi hindlarning ilohiy qasida va asotirlar to'plami)larning eng qadimiy qismlarida ham dayva, ham asuralar madh etilgan, biroq keyinchalik vujudga kelgan qismlarida asuralar yovuzlik va razillik timsoliga aylanib, hatto bu so'zning o'zi taxminan “iblis(shayton)” ma'nolarini ifodalagan⁷. Bu jarayon bizningcha oldin yagona jamiyat bo'lgan qabilalarning siyosiy hayotida yuz bergan voqealar ta'sirida vujudga kelib, ular o'rtasidagi ziddiyat avj olib, bu oxir-oqibatda diniy e'tiqodga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bu jarayonni Ahura Mazda timsolida ham ko'rish mumkin⁸.

Ilohlar to'g'risidagi ilk tasavvurlarni “Avesta”ning eng qadimiy qasidolari “Gat(Goh)”lar tashkil etib, uning asosiy qismini olamning asosi bo'lgan ikki ibtido: ezgulik (Spenta) va yovuzlik (Angra) ruhlari va ular o'rtasidagi abadiy kurash tashkil etishi bayon etiladi (Yasna 30-45). “Gat” da oliy xudo Ahura Mazda, Ahura, Mazda, Mazda Ahura kabi nomlar ostida payg'ambar Zardusht bilan suhbatlari keltirilgan(Yasna 28.3; 28.7-11; 29.2; 29.3; 30.5;)⁹.

Ma'bud Mazda nomi zardushtiylik vujudga kelmasidanoq qadimgi O'rta Osiyo va Eron xalqlarining e'tiqodida mavjud hushyorlik va ogohlik ma'budi bo'lgan. Ahura esa buyuklik ma'nosini anglatuvchi (qadimgi indoariylarada xudolar otasi - Asura) shaklidagi buyuk xudolardan bo'lgan.Ahura Mazdaning qadimgi dunyo jumladan Qadimgi Sharqdagi boshqa oliy xudolardan eng muhim

⁶ Бивар А. Д. Х. Митра и Серапис // Вестник древней истории. 1991,56с. № 3.

⁷ Мифологический словарь. М., 1990 г

⁸ Бойс М. Зороастрийцы. Санкт - Петербург, 1994г, 243с.

⁹ Авеста. Хордэ Авеста (Младшая Авеста) / Подготовка авестийского текста, перевод, предисловие, комментарий М. В. Чистякова. СПб., 2005, 154с.

farqi shundaki, u ilk marta jangchi qiyofasidagi harbiy qudrat homiysi sifatida emas, adolat va donishmandlik ilohi bo'lib gavdalandi, shuningdek unga tirik hayvonlar yoki odamlarni qurbonlik qilishmagan, balki muqaddas ichimlik xaoma(hauma)dan foydalanishgan¹⁰. "Avesta"ning ilk qismlarida Ahura Mazda dastlab tabiat homiysi, barcha uchun odil hakam va mazlumlar homiysi sifatida (Yasht XIV, 50), Ashi, Ardvisura Anahita, Sraoshi, Rashnu, Mitra kabi ikkinchi darajali xudolarning yaratuvchisi sifatida tasvirlangan (Yasht XVII, 16)¹¹. Ahura Mazda yovuzlik qarshi kurash uchun avvalo yetti abadiy tabarruk ruhlarni yaratdi. Yovuzlik Ruhiga qarshi birinchi bo'lib, o'zida Ahura Mazdaning bunyodkorlik va farovonligini aks ettirgan Muqaddas Ruh – Spenta Maynyu vujudga keldi. So'ngra Ezgu Niyat – Vohu Mana(Yasna 28.2; 28.3-8) chorva homiysi; Oliy(Ezgu) Haqiqat – Asha Vahishta (Yasna 28.2; 28.3; 28.7-11; 29.2; 29.3; 30.5;) olov homiysi; Ezgulik Podsholigi yoki Tiliklar Hukumati – Hshtra Vayrya (Yasna 28.3, 28.9; 29.11; 31.4, 31.6, 31.22; 32.12; 33.11) metall homiysi; ularning izidan Muqaddas Taqvodorlar - Spenata Armayti (Yasna 28.3; 30.7; 31.9; 44.6, 44.11) yer homiysi, Shifobaxshlik – Xaurvatar va Abadiylik – Amertat(Yasna 33.8;34.11; 44.18; 45.5) suv va o'simlik homiylari yaratildi¹².

Ammo "Kichik Avesta"da Ahura Mazda yovuzlikka qarshi kurashda yuqoridagi xudolarni birlashtiruvchi oliy iloh talqinida namoyon bo'ladi. Vaqtlar o'tishi bilan ahamoniylar va sosoniylar davrida zardushtiylik dini davlat dini darajasiga ko'tarilgach, xudolar tavsifi ham siyosiy talqin etila boshlandi, chunonchi, fors shohlari bitiklarida Ahura Mazda olampanoh: "Qudratli, Buyuk,

¹⁰ Маковельский А.О. «Авеста» Баку 1960г, 133с.

¹¹ Авеста: Избранные гимны: Из Видевдата / Пер. с авест. И. М. Стеблин-Каменского. М., 1993г, 298с.

¹² Бушков В. И. К проблеме топонимики авестийских гимнов // Этнографическое обозрение. 1998, 154с. № 1.

Muzaffar” unvonlari bilan tilga olingani endi uning oliy tabaqa va davlat homiysiga aylanganini anglatadi(Behistun bitiklari)¹³.

Aytish mumkinki, Ahura Mazda zardushtiylik oliy xudosining yagona nomi bo‘lmasdan unga nisbat berilgan, uning sifatlarini bildiradigan 72 muqaddas nomlaridan biridir (Islom dinida Olloh nomining muqaddas 99 ta ism ichida eng ko‘p ommalashgani kabi). Ahura Mazda zardushtiylik taqvimida har oyning 8-chi, 15-chi, 23-chi kunlari va yilning 10-chi oyining homiysi hisoblanadi¹⁴.

Yuqoridagi mulohazalarga asoslanadigan bo‘lsak zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesta”da O‘rta Osiyo va unga tutash hududlarda yashagan qadimgi xalqlarning olam, uning vujudga kelishi, dunyo haqidagi falsafiy qarashlari o‘z aksini topib, ayni zamonda bu din vujudga kelishi arafasidagi va shakllanish davridagi murakkab vaziyat aks etgan¹⁵. Zardusht o‘z davrining dahosi sifatida mintaqadagi o‘zaro qabilaviy qirg‘inbarot urushlarga va ichki nizolarga hamda tashqi dushman xavfiga barham berish uchun avvalo xalqni yagona e‘tiqod atrofida birlashtirish orqali maqsadga erishish lozimligini anglab mazdayasna dinini targ‘ib etgan. Zardusht o‘z ta‘limotida xalqning barcha toifalarining istak va ehtiyojlarini hisobga olib, insonning jamiyat va tabiat bilan munosabatiga alohida ahamiyat bergan. Zardusht Ahura Mazdani oliy xudo deb targ‘ib qilsada boshqa mu‘bud va ma‘budalarni ham mutlaqo rad etmadi (chunki ularning har birining o‘z e‘tiqodchilari bo‘lgan), to‘g‘rirog‘i Zardusht yangi din kashf etmadi, shunchaki mavjud dinni isloh etib uni davr talabiga moslashtirdi. Bundan ko‘rinib turadiki Zardushtning asl maqsadi hokimiyat yoki yangi dinni yaratish emas balki jamiyat va tabiat muloqotiga asoslangan panteistik ta‘limoti asosida mintaqadagi aholini yagona e‘tiqod atrofida birlashtirish edi.Chunki bu davrga kelib aytilganidek hatto e‘tiqodlar o‘rtasidagi tafovut dushmanlik darajasiga etib borgan edi. Bu

¹³ Струве В. В. Родина Зороастризма. Советское Востоковедение, V, Москва - Ленинград, 1948. 178с.

¹⁴ Мифологический словарь. М., 1990г, 88с.

¹⁵ Маковельский А.О. «Авеста» Баку 1960 г,78с.

maqsadga erishishda Zardusht Ahura Mazda obrazidan foydalandi, ammo vaqt o'tishi bilan Ahura Mazda yangi talqinlarda ifodalangan. Demakki zardushtiylikda ba'zi ma'budlarni o'rganishda protozardushtiylikning ahamiyati katta.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Абаев В. И. Миф и история в Гатах Зороастра // Историко-филологические исследования. М., 1974.
2. Авеста. Хордэ Авеста (Младшая Авеста) / Подготовка авестийского текста, перевод, предисловие, комментарий М. В. Чистякова. СПб., 2005.
3. Авеста: Избранные гимны: Из Видевдата / Пер. с авест. И. М. Стеблин-Каменского. М., 1993.
4. Бивар А. Д. Х. Митра и Серапис // Вестник древней истории. 1991. № 3.
5. Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. СПб., 1994
6. Бойс М. Зороастрийцы. Санкт - Петербург, 1994
7. Бонгард - Левин Г. М., Грантовский Э. А. От Скифии до Индии. М., 1983
8. Брагинский И. С. Из истории таджикской и персидской литератур. М.: Наука, 1972. [523с] С.87
9. Бушков В. И. К проблеме топонимики авестийских гимнов // Этнографическое обозрение. 1998. № 1.
10. Грантовский Э. А. Маздаизм. Философская энциклопедия, т. 2, М., 1962.
11. Грене Ф. Некоторые замечания о корнях зороастризма в Средней Азии // Вестник древней истории. 1989. № 1.
12. Дьяконов И. М. Восточный Иран до Кира. История Иранского государства и культуры. М., 1971.
13. Лелеков Л. А. Йима. Мифологический словарь. Москва, 1990.
14. Маковельский А.О. «Авеста» Баку 1960 г.
15. Мифологический словарь. М., 1990 г
16. Рак И. В. Зороастрийская мифология. СПб., 1998,

17. Ричард Фрай «ЗОРОАСТР И ЕГО ПРОПОВЕДЬ» Оп.: Наследие Ирана. М.: Восточная литература, 2002.
18. Струве В. В. Родина Зороастризма. Советское Востоковедение, V, Москва - Ленинград, 1948,